

**Madatov Ithom Yusup o'g'li**

SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

e-mail: [ilhommadatov7@gmail.com](mailto:ilhommadatov7@gmail.com)

tel: +998904693830

**Abduraimova Samara Danaboy qizi**

SamDU Kattaqo'rg'on filiali

2-kurs talabasi.

e-mail: [samaraabduraimova7@gmail.com](mailto:samaraabduraimova7@gmail.com)

tel:+998 90 476 63 04

---

**INKLYUZIV TA'LIMNING RESPUBLIKAMIZGA KIRIB KELISHI, MAVJUD  
MUAMMOLAR VA DOLZARB MASALALAR**

**Annotatsiya:** Maqolada inklyuziv ta'limning respublikamizga kirib kelishi, inklyuziv ta'limning respublikamizdagi huquqiy-me'yoriy asoslari, respublikamizda inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojning mavjudlik darajasi, inklyuziv ta'lim faoliyatiga respublikamiz o'qituvchilarini pedagogik, psixologik tayyorlash, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari, mazmun va mohiyati, integratsiyalashgan jamiyat, inklyuziv ta'limning amaliyotga joriy qilinishi to'g'risida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, integratsiyalashgan jamiyat, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, diskriminatsiya, psixik, intellektual, integratsiya, teng huquqlilik, korreksion ta'lim, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, individual yondashuv, inklyuziv o'quv dasturlar.

**Аннотация:** в статье описывается внедрение инклюзивного образования в нашу республику, нормативно-правовые основы инклюзивного образования в нашей республике, уровень существования потребности в инклюзивном образовании в нашей республике, педагогическая и психологическая подготовка педагогов нашей республики к инклюзивное образование, инклюзивное образование, содержание и сущность, интегрированное общество, внедрение инклюзивного образования в практику.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, интегрированное общество, дети с особыми образовательными потребностями, дискриминация, психическая, интеллектуальная, интеграция, права человека, коррекционное образование, Закон «Об образовании», индивидуальный подход, инклюзивные образовательные программы.

**Annotation:** The article describes the introduction of inclusive education to our republic, the legal and normative foundations of inclusive education in our republic, the level of existence of the need for inclusive education in our republic, pedagogical, psychological preparation of teachers of our republic for inclusive education, inclusive the goals and objectives of education, content and essence, integrated society, and the introduction of inclusive education into practice were expressed.

**Key words:** inclusive education, integrated society, children with special education needs, discrimination, mental, intellectual, integration, human rights, correctional education, Law "On Education", individual approach, inclusive educational programs.

---

**Kirish.**

" Inklyuziv" so'zi inglizcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqalardan qat'i nazar, barcha odamlarning ishtirokini o'z ichiga olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni bildirish uchun ishlatiladi. Inklyuziv ta'lim-hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning jismoniy, psixologik, individual imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil

etiladigan ta'lim jarayonidir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatlariga ustuvorlik berilgan bo'lib, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional va oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni alohida e'tirof etish lozim. Yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyada ham muhim siyosiy komponentlar qatoriga kiritilgan. Prezident Sh. Mirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan, "Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz" deb ta'kidlaydi.

### **Asosiy qism.**

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Respublikamizda ayni vaqtda aralash inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan guruh va sinflarda imkoniyati cheklangan 3000ga yaqin bolalar tahsil olmoqda. Loyiha ilk yo'lga qo'yilgan 2007-yilda ularning soni 47ta edi. Buning asosiy sababi inklyuziv ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga o'tonalarning ijobiy munosabatlari va qarashlaridir. Dastlab, nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi va YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus davlat tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgarib boshladi. Buning natijasida, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari iahlab chiqildi. Jumladan: 2017-yil 1-dekabrda PF 5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab -quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF 5712-son " Xalq ta'limi tizimini 2030-yil gacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 13-oktabrdagi PF 4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy -huquqiy hujjatlarning barchasi nogironlarni davlat tomonidan qo'llab -quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu qonun va farmonlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad barcha nogiron insonlarning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish hamda to'la va keng amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilishni rag'batlantirish va nogironlarga turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik, intellektual yoki sensor buzilishlarning oldini olishdan iborat. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning yangi tahririda ham inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unga ko'ra har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham kiritildi. Inklyuziv ta'limning maqsadi: ijtimoiy adolat va tenglikka asoslangan holda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim

muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limning vazifalari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

-inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

-inkyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

-inkyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etuvchi yo'llarini izlab topish;

-inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish;

-inkyuziv ta'limni qo'llab -quvvatlashning asoslarini o'rganish;

-inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish;

-jamiyatda maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berishdan iborat.

Inklyuziv ta'limning eng muhim vazifalaridan yana biri bu respublikamiz o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga pedagogik, psixologik tayyorlash, inklyuziv ta'limga oid metod va metodikalar, o'quv dasturlari bilan qurollantirishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, ta'limda integratsiya muhitini yaratish va uni amaliyotga joriy qilishdan iborat. Inklyuziv va integratsiya so'zlari bir xil ma'nolarni anglatib, integratsiyalashgan jamiyatda barcha teng huquqqa ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

#### **Xulosa.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida eng avvalo kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir, farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Bu kabi islohotlarning amalga oshirilishi biz kabi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham albatta muhim va zarur hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr O'RQ 637-son Qarori.

2. "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya 2021-yil 7-iyundagi O'RQ-695-sonli Qarori.

3. Inklyuziv ta'lim. Darslik/Madatov I.Y O'zb. Res Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali. Toshkent. "Best Publish"-2024.240b.

4 F.U.Qodirova .D. A. Pulatova " Inklyuziv ta'lim:nazariya va metodika" Qo'qon -2023.